

TIQXMMI doktorantining monografiyasi sakkizta tilda

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Yerdan foydalanish" kafedrasining I bosqich doktoranti Maxsudov Muxammadbek "Tuman yer fondidan foydalanish diversifikatsiyasini tartibga solish yo'nalishlari" mavzusidagi dissertatsiya ustida tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ushbu tadqiqot doirasida "Yerdan foydalanishni diversifikatsiya qilish taraqqiyot omili" ("Diversifikatsiya zemlepolzovaniya yavlyaetsya faktorom razvityatiya") nomli monografiyasini Lap Lambert Academic Publishing xalqaro nashriyotida rus tilida nashr ettirdi. Monografiya rus tilidan tashqari, Germaniyaning nufuzli tarjimon kompaniyasi bilan hamkorlikda yana 7 tilga ham tarjima qilindi.



Shuningdek, yosh olimning "Yerdan foydalanish diversifikatsiyasini prognoz qilish metodikasi" ("Metodologiya prognozirovaniya diversifikatsii ispolzovaniya zemelnogo fonda"), "Tumanda yer fondini diversifikatsiyalash" ("Diversification of land fund in the district"), "Qishloq xo'jaligi yerlarini baholashning zamonaviy yondashuvlari" ("Современные подходы к оценке сельскохозяйственных угодий") deb nomlangan, tadqiqot natijalari taqdim etilgan monografiyalari ham Lap Lambert Academic Publishing xalqaro nashriyotida nashr qilinib, www.morebooks.shop (<https://www.morebooks.de/store/gb/book/методология-прогнозирования-диверсификации-земельного-фонда/isbn/978-620-2-66730-2>), www.amazon.com (<https://www.amazon.com/Диверсификация-землепользования-является-фактором-развития/dp/6139443822>) internet do'konlarida onlayn sotuvga chiqarilgan. Muxammadbek Maxsudov ilmiy tadqiqot natijasi bilan "Fan va ta'limning innovatsion rivojlanishi" ("Innovatsionnoe razvitie nauki i obrazovaniya") nomli xalqaro hammualliflikdagi monografiya nashr qilishda ham qatnashgani e'tiborga molik.

TIQXMMI matbuot xizmati